

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA TASDIQ VA INKORNI IFODALASHNING VERBAL VA NOVERBAL USULLARI

Azizmuxamedova Shoxsanam Furqat qizi
Turon Xalqaro Universiteti 70230101-Lingvistika (ingliz tili)
yo'nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Paralingvistika kommunikatsiyaning bir turi bo'lib, unda asosan imo-ishoralar o'rganiladi. Ushbu maqolada paralingvistik vositalarining muloqot jarayonida qo'llanilishini ko'rib chiqildi. Noverbal, aniqrog'i, paralingvistik vositalarning turlari batafsil tasnifi qilingan. Shuningdek, maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi paralingvistik vositalarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: muloqot, paralingvistik vositalar, noverbal vositalar, noverbal muloqot, imo-ishoralar, kinesika, okulesika, fonatsiya, mimika.

VERBAL AND NONVERBAL METHODS OF ASSERTION AND DENIAL IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

ANNOTATION:

Paralinguistics is a type of communication that mainly studies gestures. This article considered the use of paralinguistic tools in the process of communication. The types of nonverbal, or rather, paralinguistic tools are classified in detail. The article also considered the specific features of paralinguistic tools in the Uzbek and English languages.

Key words: communication, paralinguistic means, non-verbal means, nonverbal communication, gestures, kinesics, oculesics, phonation, facial expressions.

ВЕРБАЛЬНЫЕ И НЕВЕРБАЛЬНЫЕ СПОСОБЫ УТВЕРЖДЕНИЯ И ОТКАЗА НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

АННОТАЦИЯ:

Паралингвистика представляет собой тип коммуникации, который в основном изучает жесты. В данной статье рассматривается использование паралингвистических средств в процессе общения. Типы невербальных, или скорее паралингвистических средств, подробно классифицированы. В статье также рассматриваются специфические особенности паралингвистических средств в узбекском и английском языках.

Ключевые слова: общение, паралингвистические средства, невербальные средства, невербальная коммуникация, жесты, кинезика, окулесика, фонация, мимика.

KIRISH

Bilamizki, paralingvistika – noverbal kommunikatsiya hisoblanadi. Tilda (nutqda) ularning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular nutqni obrazlantirishga xizmat qiladi. Bular kinesika (hissiyotlarni tashqi tana azolari orqali ifodalanishi), imoishoralar (tana qismlarining alohida harakatlari), proksemika (muloqotda insonlar o'rtasidagi yaqinlik masofasi), takesika (muloqot vaqtida teginishlar, siypalash, itarib yuborish), pantomimika (yurish harakatlari, qomatni tutish, egilish harakatlari), mimika (yuz mushaklarining turli xil harakatlari) kabilar. Har bir paralingvistik vosita muloqotda muayyan bir vazifani bajarishi bilan birga matnni tushunarliroq va emotsiyaga boy bo'lishini ta'minlaydi. Aytish joizki, imo-ishoralar og'zaki nutqni izohlab, to'ldirib keladi. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, noverbal muloqot verbal muloqotdan ko'ra ko'proq ma'lumot uzatadi. Aytmoqchimizki, matndagi so'zlarning ta'sirchanligi yuqori bo'ladi. Undan tashqari, imo-ishoralar ikki so'zlashuvchi orasida o'zaro munosabatni o'rnatishga yordam beradi va ularni tartibga soladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

G'arbda paralingvistika fani ustida olib borilgan juda ko'p ishlar mavjud bo'lib, ularning o'ziga xosliklari tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Masalan, Ekman (1982), Fridlund (1994), Zebrovits (1997) va Gifford (2006) mimika va yuz xususiyatlarini o'rganish uchun tarixiy mezonlarni taqdim etgan. Imo-ishoralarning zamonaviy va tarixiy jihatlari Kendon (1982b, 2004) va Shmitt (1992) tomonidan ilgari surilgan. Laver (1981) vokal, ya'ni tovush sifatini o'rganishga tarixiy nuqtai nazardan yondashgan. Bavelas va Chovil (2006) ba'zi noverbal xatti-harakatlarning so'zlar, prosodiya (urg'u va intonatsiya) va bir-biri bilan muvofiqlashtirilishini tahlil qiladigan qisqacha ilmiy tarixni taqdim etgan. Walzer (2006) har xil turdagi texnologiyalar vositasida amalga oshirilgan noverbal signallarning nisbatan yaqindagi tarixini ta'kidladi, Xoloka (1992) va Lateyner (1992) qadimgi yunon va rim adabiyotlarida ba'zi paralingvistik xatti-harakatlarga qanday munosabatda bo'lganligini ko'rsatdi.¹

G'arb olimi I. Yakovlev paralingvistika sohasida ish olib boruvchi olimlarning turli fikrlarini tanqidiy o'rganib, uning o'zi ham shu sohada juda ko'p izlanishlar olib boradi va bir necha tadqiqotlar natijasida paralingvistik vositalarning komponentlarini quyida keltiriladigan 9 ta guruhga bo'ladi. Bular: 1. Kinesika (qo'l, barmoq va boshqa tana harakati); 2. Vokalika (ovozning akustik xususiyatlari va tovush); 3. Fizik

¹ 1 Judith A. Hall and Mark L. Knapp (eds.) Nonverbal Communication, Handbooks of Communication Science, 2013 Walter de Gruyter GmbH, Berlin/Boston.

xarakteristika (gavda qismi shakli, o'lchami, soch rangi); 4. Xaptika (teginish); 5. Proksemika (gavdaning o'ziga xos xususiyatlari); 6. Xronomika (vaqt); 7. Artefakt (kiyimlar, taqinchoqlar, kosmetika); 8. Olfaktika (hid bilish); 9. Estetika (musiqa, rang).

O'zbek tilshunoslari ham yillar mobaynida tilshunoslikning paralingvistika bo'limiga qiziqib kelganlar. O'zbek tilshunoslaridan Siddiqjon Mo'minov, Abdulhamid Nurmonov, Sharifa Iskandarova, Ma'murjon Saidxonov, Aziza Aripova kabi lingvistlar paralingvistik vositalar ustida turli xil izlanishlar olib borishgan.² Xususan, Siddiqjon Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" deb nomlangan doktorlik ishida noverbal vositalarning genderologik xususiyatlari haqida o'z fikrini ilgari surib, erkaklar va ayollar foydalanadigan imoishora, mimikalar haqida kerakli ma'lumotlar berib o'tgan.³ Ma'murjon Saidxonov ham o'z nomzodlik mavzusi bo'lgan "Noverbal vositalar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi" ishida paralingvistik vositalarni chuqur o'rganib, ularni ikki guruhga: 1) somatik va kommunikativ xususiyatlari asosida; 2) ishlatilishiga ko'ra bo'ladi. Shuningdek, M. Saidxonovning fikriga ko'ra, paralingvistik vositalar muloqotda o'z ahamiyatiga ega bo'lib, ulardan to'g'ri foydalanish esa muloqotning sifatini oshirib beradi. U. M. Yusupova esa o'zining "Noverbal ma'no ifodalashning milliy shakllari" nomli maqolasida o'zbek paralingvistik vositalari haqida fikr yuritgan va ularning ahamiyatini ochib bergan.

Undan tashqari Yusupova paralingvistik vositalarning muloqotdagi o'rni haqida ham ma'lumotlar berib o'tgan. Bundan tashqari, Q. Rasulov ham o'zbek paralingvistik vositalarini o'rganib, o'zining "O'zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi" nomzodlik ishida turli kasb egalari foydalanuvchi noverbal vositalarni tadbiq etgan. O'zbek tilshunosligida paralingvistika sohasida Abdulhamid Nurmonovning ham hissasi juda katta. Aniqrog'i, olim paralingvistik vositalarning turlari, ularning muloqot va tildagi ahamiyati, hamda ularning vazifalari haqida atroflicha fikr bildirib o'tgan.⁴

NATIJARLAR

O'zbek tilida muloqot jarayonida paralingvistik vositalar juda keng qo'llanilib keladi. Ayniqsa, bosh va ko'z bilan bog'liq bo'lgan paralingvistik vositalar so'zlashuvda ham, badiiy asarlarda ham ishlatiladi. O'zbek tilining noverbal muloqoti asosiy uch turga bo'linadi: fonatsiya, okulesika va kinesika. Fonatsiya ovozning nutqda ishlatilishi, unda ovozning past va balandligi, yo'g'on yoki ingichkaligi kommunikatsiyaga qanday ta'sir o'tkazishini o'rganadi.

Bilamizki, nutqda har xil tovushlarning ishlatilishi muloqotni his-hayajonga boy qilib beradi va ayni bir hissiyotni kuchaytirishda xizmat qiladi. Shunday ekan,

² 2 Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Т.: Академнашр, 2012

³ Мо'минов С. О'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. dok-ri diss. – Т.: 2000

⁴ Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. – Андижон, 1980.

tovushlarni kommunikatsiyada to'g'ri ishlatish noverbal muloqotni tushunishga yordam beradi. Asosan intonatsiya va urg'u yordamida ma'lumotlar yetkazib beriladi. Intonatsiya gapni qanday hissiyotlar bilan yetkazib berilayotganini ko'rsatib bersa, urg'u esa ayni bir so'z yoki gapni muhimligini namoyish qilib beradi. Masalan,

— Kambag'allik o'lsin, kambag'allik! — dedi u va chuqur bir “uh” tortdi. (Cho'lpon “Kecha va kunduz”, 28-bet). Bu gapda “uh” tortish “g'amlik” va “afsuslanish” hislarini ifodalab beradi. Undov belgisi esa yozma nutqda gapni juda qattiq his-hayajon bilan aytilganligini va intonatsiya ko'tarilganini ko'rsatadi.

Okulesikada ko'z orqali his-tuyg'ularni ifodalanishini tushuntiriladi. Ta'kidlash kerakki, ko'zning biron-bir harakati muloqotda albatta o'z ifodasiga ega bo'ladi. Ko'z bilan bog'liq noverbal vositalar ham ijobiy, ham salbiy ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, ko'zni baqraytirish, lo'q etib qarash, ko'zni qisish, ensa qotirish kabi vositalar uning salbiy tomonlarini ko'rsatib beradi. Misol uchun,

— Nechuk? — dedi u va kelinbibisining ko'zlariga baqrayib tikilgani holda uning ikkala qo'lini qo'llari orasiga oldi. (Cho'lpon “O'sha asar”, 31-bet).

Kinesika esa nutqda imo-ishoralar, mimika va tana a'zolarining keng ishlatilishini tushuntirib beradi. Publitsiy bir vaqtlar shunday degan edi: “biz ovoz orqali gaplashamiz, butun tanamiz orqali esa suhbatlashamiz”. Chunonchi,

Ismoil melisa qovog'ini solib menga bir qarab qo'ydi. Ammo bolani qo'yib yubormadi. (O'. Hoshimov “Ikki eshik orasi”, 159- bet). Bu misollarda mimik harakat - “qovog'ini solish” so'zlovchining jahli chiqqanini yoki xafa ekanligini ko'rsatib beradi. Ingliz tili ham paralingvistik vositalarga juda boy tillardan biri hisoblanadi. Paralingvistik vositalar gapda so'zlashuvchilarning fizik xolatini ko'proq ishlatilishi, so'zlarni esa kamroq ishlatishni talab qiladi.

Ingliz tilida paralingvistik vositalar asosan 5 turga bo'linadi. Bular imo-ishoralar, yuz ifodalari, ko'z ifodasi, tana ifodalari va muloqot masofasi. Ularning har birini o'z ishlatilish o'rni va vazifasiga **bor**⁵.

Qo'lning gorizontal yo'nalishda qimirlatish imo-ishoralar ichida eng ko'p ishlatiluvchi hisoblanadi. Bu noverbal vosita asosan salomlashish va hayrlashish ma'nolarida ishlatiladi. Masalan, quyidagi parchada qo'lni silkitish “hayrlashish” ma'nosida ishlatilgan: They kissed their mother quietly, clung about her tenderly, and tried to wave their hands cheerfully when she drove away. (L. M. Alcott “Little women” p 188). Ular onasini sekingina o'pib qo'yishdi, uni mehr bilan quchoqlab olishdi va u mashina haydab ketayotganda qo'llarini quvonch bilan silkitishga harakat qilishdi.

Boshning ham muloqotda o'z o'rni bor. Bosh bilan bog'liq bo'lgan paralingvistik harakatlar nafaqat o'zbek tilida, balki g'arb tillarida ham juda ko'p uchraydi. Har bir

⁵ D. Matsumoto, Hyisung C. Hwang, Mark G. Frank – APA Handbook of Nonverbal Communication, First edition - American Psychological Association, Washington, DC – 2016

bosh harakatining ishlatilish o'rnini va ma'nosini bor. Masalan, "boshni silkitish" yoki "chayqatish" noverbal vositalari "afsuslanish" ma'nosida ishlatilgan: He shook his head. 'I wish I could call her amiable. It gives me pain to speak ill of a Darcy. (J. Austen "Pride and Prejudice", p 103). U boshini chayqadi. "Men uni mehribon deb atashni xohlardim. Darsi haqida yomon gapirish menga azob beradi.

"Ko'rsatkich barmoqni ko'tarib, uni labga tekkizib vertikal holatda ushlab turish esa "tovush chiqarmaslik", "sukut saqlash"ni ko'rsatish uchun foydalanib kelinadi: 'Hush!' said Bernard suddenly, and lifted an index finger; they listened. 'I believe there's somebody at the door,' he whispered. (A. Huxley "Brave new world" p 49). "Jim!" – to'satdan dedi Bernard va ko'rsatkich barmog'ini labiga ko'tardi; ular quloq solishdi. "Ishonamanki kimdur eshik oldida turibdi" – dedi u pichirlab.

Yuqorida keltirib o'tilgan o'zbek va ingliz paralingvistik vositalar shuni ko'rsatadiki, o'zbeklar asosan, mimika, intonatsiya va qo'l harakatlaridan foydalanishadi. Bunga sabab esa, tarixdan beri shakllanib kelayotgan turli urfodatlar va mentalitetdir. Ingliz so'zlashuvchilari esa o'zbeklardan farqli o'laroq, paralingvistik vositalar bo'lgan ko'z ifodalari va barmoqlardan keng foydalanishadi. Aytmoqchimizki, suhbat jarayonidagi ortiqcha imo-ishoralar yoki haddan tashqari ko'p ishlatiluvchi mimikalar inglizlarga xos emas.

XULOSA

Keltirib o'tilgan ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, paralingvistik vositalar bo'lmish imo-ishoralar, yuz ifodalari, qo'l va oyoq harakatlari, gavda holatlari muloqotda keng qo'llaniladi. Xususan, o'zbek va ingliz tillarida mavjud bo'lgan barcha noverbal elementlar muloqotda o'z ifodasini topadi. Ta'kidlash joizki, noverbal vositalar muloqotni to'ldiradi va yoritib beradi. Bundan tashqari, o'zbek va ingliz tillaridagi ko'plab imo-ishoralar universal hisoblanib, ular boshqa millat va ma'daniyat vakillari uchun ham tushunarli. Demak, bunday paralingvistik vositalar muloqotni nafaqat chiroyli yoritib beradi, balki boshqa tinglovchilarga ham tushunarli qilib beradi. Shunday ekan, noverbal vositalarni muloqotda ishlata olish ko'nikmasini shakllantirish va ularni chuqur o'rganish joizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Alcott L. M. Little Women. Boston Roberts Brothers. 1868
2. Austen J. Pride and Prejudice. T. Egerton, Whitehall. 1813
3. Cho'lpon. Kecha va Kunduz. «Sharq» nashriyot matbaa konsernining tahririyati Toshkent - 2000
4. Judith A. Hall and Mark L. Knapp (eds.) Nonverbal Communication, Handbooks of Communication Science, Walter de Gruyter GmbH, Berlin/Boston. 2013.
5. Hoshimov O'. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2012.

6. Huxley A. Brave New World. The online Distributed Proofreaders Canada team at <http://www.pgdpcanada.net>. 1932
7. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. dok-ri diss. – T.: 2000.
8. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Т.: Академнашр, 2012.
9. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. – Андижон, 1980